



ISSN 0134-2231

ХАЛҚ ТАЪЛИМИ

ХАЛҚ ТА'ЛИМИ
4•2009



Ш. ҲАСАНОВА. Болаларда Тошкент шаҳри билан фахрланиш тўғрисида шакллантириш.....	84
И. РАҲМОНОВ. Математика ўқитишда фузионизм.....	88
А. ҚОРАХОНОВА. Ўқувчилар билимини баҳолаш ва ўз-ўзини назорат қилишда кўп танлов жавобли тест топшириқларидан фойдаланиш.....	92
Б. ЭЛМУРАДОВ. Олий таълимда информатикадан лаборатория ва амалий машғулотларни ташкил этишнинг мазмуни.....	95
М. ҚОСИМОВА, Ф. ҚОСИМОВ. Бошланғич синфларда ўқувчиларни мустақил масала тузишга ўргатиш.....	98
Б. АБДУРАҲИМОВА. Академик лицейларда «Қутадғу билиг» асарини жанр тизимига кўра ўрганиш.....	103

Ma'naviyat

Г. АНМЕДОВА. Muomala madaniyatining pedagogik aspektlari.....	108
С. ШИНИЙЕВА. Kitobxonlik — ma'naviyat ko'zgusi.....	111
С. АКРАМОВА. Alisher Navoiy asarlarida komil inson talqini.....	115
Ш. АКБАРОВА. O'quvchilarda tolerantlikni tarbiyalashda badiiy asarlarning imkoniyatlaridan foydalanish.....	117
Р. Г'ОИБНАЗАРОВ. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.....	121
И. РУСТАМОВ, М. РАҲИМҚУЛОВ. Ibn Sinoning ilmiy-falsafiy merosi.....	124

Психология

С. БУЛАТОВ, П. ШАБАРАТОВ. Санъат асаридаги ҳаракатлар тизими.....	127
М. ДАДАХЎЖАЕВА. Касб-ҳунар коллежи ўқувчиларини касбий қизиқишларининг психологик хусусиятлари.....	131
Г. ЮНУСОВА. Нотўлиқ оиладаги тарбиянинг ўзига хослиги.....	134
А. БАҲРИЕВ. Мусиқа психологияси хусусида.....	137

Мактабдан ташқари таълим

И. ҚАЮМОВ. Ҳаваскор чолғучилар тўғрагини ташкил этиш усуллари.....	140
В. БЕРДИЁРОВ. Ўсмирларни миллатлараро тотувлик руҳида тарбиялаш муаммолари.....	143

Малака ошириш

Ш. ДЎСТМУҲАМЕДОВА, М. ЗАЙНИТДИНОВА. Педагоглар малакасини ошириш жараёни самарадорлигига таъсир этувчи психологик-педагогик омиллар	146
--	-----

Тақриз

А.П. СУЛАИМОНОВ. Мустақиллик тафаккурини тарбиялашга оид тадқиқот.....	151
С. ФАЙЗУЛИНА. Формирование профессионального призвания у будущих учителей.....	153
В. ВАРГА. Закономерности и условия формирования профессиональной мотивации у будущих преподавателей ССПО.....	157

Муқовадаги суратда «Йилнинг энг яхши фан ўқитувчиси» республика кўрик-танловининг иштирокчиси Хонқа туманидаги 22-мактаб ўқитувчиси Гулистон Саъдуллаева намунавий дарс ўтаётган жараёни тасвирланган. «Шарқ» НМАК босмахонаси. 700003. Тошкент шаҳри, Буюк Турон кўчаси, 41-уй.

сирасида ишлаш ҳам ўқувчиларнинг асарга бўлган қизиқишларини, ундан оладиган завқларини орттириши мумкин. Бунинг учун яна бир қатор карточкалардан фойдаланиш мумкин бўлади. Уларда тўртлик намуналари берилади. Мавзусига кўра, яқин бўлган тўртликлар ажратилиб, уларнинг ифода имкониятларига эътибор қаратилади.

Ўқитувчи мустақил равишда бошқа тўртликларни ҳам таҳлилга тортиши мумкин. Муҳими, ҳар бир шаклдаги тўртликнинг ифода тарзи бежиз танланмаганлиги, уларнинг ҳар бирида ижодкор кўзда тутган маънонинг ўзига хос тарзда юзага чиқаётганлиги кўрсатиб берилиши керак. Энг маъқули буларнинг барчасини ўқувчиларнинг бевосита иштирокида амалга оширишдир.

Юсуф Хос Ҳожибнинг "Қутадғу билиг" асар тўртликларидаги ҳақида гапирганда, уларнинг маснавийлар мазмунига уйғунлигини таъкидлаш лозим. Шундагина уларнинг дostonда яхлит бир бутунликни ташкил этиши ўқувчиларга аниқроқ англашилади.

Изоҳ: Мақолада келтирилган шеърӣй парчалар Қ. Каримовнинг 1970 йилда нашр этилган "Қутадғу билиг" таъдидан олинган.

Барно АБДУРАҲИМОВА,
Қўқон ДПИ катта ўқитувчиси.

MA'NAVİYAT

MUOMALA MADANIYATINING PEDAGOGIK ASPEKTLARI

Dunyoda insoniyat olami yaralibdiki, uning nutqi doimo tafakkurining sermazmun jihatlarini ifodalovchi ruhiy hodisa bo'lib keladi. Darhaqiqat, o'z tilining go'zalligi, nafis jozibasini anglagan kishi uning ichki dunyosi sehrini ham nozik ilg'aydi, undan mukammal san'at asari yaratishga intiladi.

Lekin aslida-chi, hayotda buning aksi bo'lib chiqsa-chi, ya'ni aytadigan bo'lsak, dilimizni yaralaydigan, muomala madaniyatini egallamagan, badiiy so'zlash mahoratiga ega bo'lmagan kishilarning so'zlari aksariyat hollarda ma'nosiz va xira bo'lib, ular zaboni bilan darz ketkazilgan ko'ngilni qaytadan tiklash mushkul bo'ladi. Eng buyuk so'z zargari Hazrat Alisher Navoiy kishilar nutqining ma'nosi juda ham keng, yanada serhikmat bo'lishi kerakligini quyidagicha ta'kidlaydi:

Necha buyuk aylasang so'zingni,
Ondin buyuk etgaysen o'zingni.

Ha, demak, el orasida o'z qadr-qimmatini saqlashni, obro'e'tibor qozonishni xohlagan yurtdoshlarimiz yuksak nutqiy madaniyatlari,

hozirjavobliklarini qanchalik namoyon qilsalar, ular shu fazilatlarini bilan shunchalik ulug'lanadilar, baland martabaga erishadilar yoki bunday bo'lmasa, boshlarini egishga majbur bo'ladilar.

Ulug' so'z ustasi o'zining "Sab'ayi sayyor" dostonida esa til, so'zlash qobiliyati odamzodga Alloh tomonidan berilgan shunday ajoyib mo'jiza ekanligi, uning beqiyos nafisligini ta'riflashga qalam ojizligini aytib o'tadi. Mutafakkir olim gapiriladigan so'zning insoniyat hayotida juda muhim ahamiyat kasb etishi, dag'al, qo'pol so'zlashdan esa inson dili xufton bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi g'oyalarni ilgari suradi.

Akademik shoir G'afur G'ulom fikricha, farzandlarimiz chiroyli muomalani o'z oilalarida eshitishlari kerakligini ta'kidlab, shundagina ular erta ochilgan bodom guliday tashqaridan bo'ladigan ayozlarga, ta'sirlarga aldanmasliklarini aytadi.

Xullas, bunday ko'lamdagi ishlarni oiladan, mahalla, bog'chadan boshlashimiz, ya'ni ko'rkam nutq musobaqalarini tashkil etishimiz, tilga jamiyatimizning ma'naviy ko'zgusi sifatida talablar qo'yimog'imiz zarur.

Ma'lumki, inson farzandi tug'ilganida har qanday illatlardan holi, pokiza bir vujud bo'ladi. Bolaning atrofidagi mikromuhit esa uni barkamollikka eltadi yoki kamchilikli qilib tarbiyalash xususiyatiga ega bo'ladi. Darhaqiqat, unga beriladigan tarbiya yoki bolani komil inson sifatida tarbiyalashi yoki nomiga nomunosib qilib qo'yishi mumkin.

Afsuski, ko'cha-ko'yda tez-tez o'smirlarning o'zaro ma'naviyatimizdan uzoq, uzuq-yuluq jargonlarda, so'kib turib gaplashganlari qulog'imizga chalinadi-yu, birov ustimizdan muzday suv quyib yuborganday bo'lamiz... Nahotki, bugungi zamonaviylashish fazilati illatlaridan biri shunday shaklda rivojlangan bo'lsa?

Bunday bo'lishiga asosiy sabab o'smirlar nafas olayotgan muhitda, oilasida otaning ko'p narsaga so'kib gapirishi, aka-ukalari, qarindosh-urug'lari, atrofidagi do'stlarining odatdagiday so'kishlari bo'lsa kerak. Ayrim otalar "bunday so'zlashdan" yiroq bo'lsalar-da, nimagadir o'g'il bolalarimizga ko'cha aks ta'sir ko'rsatadi: tillarini etni junjiktiradigan so'zlar hisobiga burro qiladi. So'kib turib so'zlash borgan sari ko'payyaptiki, aslo kamayayotgani yo'q: bu muammo butun dunyodagi insoniyatni tashvishga solyapti. Shu o'rinda yana hujjatlarga tayanadigan bo'lsak, bizning allomalarimiz ziyoli bo'lishlari bilan birga juda suxandon bo'lishgan, ular "Nutq madaniyati" ni alohida fan sifatida bilib, o'z faoliyatlarini muvaffaqiyatli yuritishda undan o'rinni foydalanganlar, nutqiy muomalada ba'zi bir yutuqlarga erishganlar.

Aytishlaricha, og'izdan chiqqan yomon so'z, qarg'ish hamda so'kish so'zlari biosferaga chiqqandan so'ng bir oz muddat ichida osmonda muallaq aylanib yuradi, keyin esa aytgan odamga yaqinlashadi, uning atrofidagi aurasiga joylashadi, uning o'ziga yomon ta'sir qila boshlaydi.

Qadimda bizning o'tmish allomalarimiz oqil insonni tarbiyalashda undagi muomala madaniyatini yuksaltirishga zo'r e'tibor bilan yondashganlar. Masalan, Mir Alisher Navoiy bobomiz muntazam ravishda har bir kishining so'zi mayin, shirin bo'lishiga katta ahamiyat berib borgan. Demak, xushmuomalalilik buyuk mutafakkirlarimiz fikrlaricha, insoniylik madaniyatining negizidir.

Shunday ekan, har bir odam gapirayotgan tilini behayo, qo'pol, eshituvchi qalbini jarohatlaydigan bema'ni so'kish, qarg'ish so'zlardan saqlashi, Alisher Navoiy ta'kidlaganlariday, "barcha balo tildan—odam a'zolarining shirini ham, zahari ham til" ekanini bir daqiqaga bo'lsa-da, unutmashligi kerak.

Kuzatishlardan shu narsa ravshan bo'ladiki, odamlarda umr bo'yi so'z bilan o'n sakkiz ming olamni, borliqni anglash hissi doimiy ravishda to'xtamay takrorlanaveradi. Ya'ni inson nutq qudrati tufayli o'z tafakkurini boyitib boradi.

Oybek domla aytganlariday: "U odam kim, nima ishlar qilib yurganini uning so'ziga, gapirayotgan gapiga qarab biladilar". Shularga ko'ra, inson elda hurmat-e'tibor topadi, oshna-og'ayni orttiradi, ma'lum mavqeni egallaydi, butun dunyo taniydigan darajaga erishadi.

Ulug' so'z me'morlaridan Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida bu haqda shunday deydi:

Erkim so'z vajidan taxtga egadir,
So'zkim, er boshini pastga egadir.

Ya'niki, kishi so'zi tufayli taxtga o'tirishga loyiq bo'lishi yoki boshini pastga egib, malomatga sazovor bo'lishishi ham mumkin.

Til va nutq ustida olib boriladigan ishlar farzandlarimizning ilk bolaligidayoq amalga oshirila boradi, onalar ular bilan ko'proq muloqotda bo'lishga, eng yaxshi tomonlarini oshirishga, yomonlarini kamaytirishga harakat qiladilar. Ammo negadir bunday ishlarni o'tkazishni bolalari katta bo'la boshlagach, unutib qo'yadilar. Ota-onalar farzandlarining gaplari o'zgara boshlaganda e'tiborsiz bo'ladilar, o'z ishlari bilan ovora bo'lib, vaqtini qo'ldan boy beradilar, ularni tillarni, ijodkorlik ishlarini hamda kasb-hunarlarini o'rgatadigan to'garaklarga olib bormaydilar.

Bizning nutq madaniyatiga bog'liq fikrlarimiz uning faqat muayyan bir mavzusi tomonigagina aniqlik kiritisa ajab emas, tilimiz to'g'risidagi muammolar katta bir kompleks tizimni tashkil etadi, ularni hal qilishda respublikamiz xalqi barcha ma'naviy va madaniy kuchlari, vositalari, kompyuter texnologiyalari yordamida faollik ko'rsatishi, har bir ma'naviyati sog'lom kishi kommunikativ muloqotdagi o'z o'rnini juda yaxshi his qilishi, keraksiz narsalarni so'zlashdan

o'zini tiyishi: g'iybat hamda bo'hton so'zlarni eshitganda salmoqlab, ya'ni yetti marta o'lchab, so'ngra bir qarorga kelib, hamma narsa oydinlashgandan keyingina shoshmasdan gapirishi lozim.

Umuman, xulosa o'rnida shuni aytish joizki, o'zbek tilining go'zal imkoniyatlaridan; badiiy ta'sirchan nutq elementlaridan hamda etiketlaridan o'rinli foydalanish jamiyatimiz yetuk a'zosining asosiy vazifasi bo'lib, milliy madaniyatimizning bebaho qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Bunday ko'lamdagi ishlar har bir imonli, o'zini vatanparvar deb o'ylaydigan avlodning juda muhim hal qilinishini kechiktirib bo'lmaydigan burchidir.

Ha, nutq insonga tortiq qilingan shunday bir ne'matki, undan faqat ezgu amallar hosil bo'lgay!

Gulnoza AHMEDOVA,
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti
katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari nomzodi.

KITOBXONLIK – MA'NAVİYAT KO'ZGUSI

Oila kitobxonligi bu — oila a'zolarining aql-zakovati va yuksak ma'naviyatini shakllantiruvchi, inson ma'naviy dunyosini boyituvchi, kitobga mehr-muhabbat hamda uni zaruriyatga aylantirishning ma'lum tizimidir. Bu tizim o'smirlarning aqliy, ma'naviy, axloqiy, estetik rivojlanishi tizimidan iborat bo'lib, o'zbek oilalarining kitobxonlikka doir qadimiy an'anasi va hozirgi davrda to'plangan boy tajribasiga asoslanadi. An'anaviy tajribalarga ko'ra, oila kitobxonligini tarkib toptirish o'ziga xos omillarga ega. Bu omillar: o'smirlarda kitob o'qish ishtiyoqini hosil qilish, kitob tanlashda o'smirning ma'naviy darajasini, uning yosh va ruhiy xususiyatini hisobga olish; kitob tanlashga ixtisoslashish; kitoblarni ekspertizadan o'tkazish va, nihoyat, bolalarning kitob o'qishini nazorat qilib borish kabilardir.

Yosh avlod ma'naviyatini shakllantirish mamlakatimizda muhim vazifa qilib qo'yilishi oila ma'naviyatini o'rganish va takomillashtirishda yangi imkoniyatlarni yaratdi. Ana shu imkoniyatlardan foydalangan holda, respublikaning to'rtta viloyatida har bir oilada kitobxonlikning holatini aniqlash, bu boradagi muammolarni ilmiy asosda o'rganish va tahlil etish maqsadida ijtimoiy-pedagogik so'rovnomalar o'tkazildi (3—4-ilovalar).

So'rovnomalar o'zbek oilalarida kitobxonlik vositasida o'smirlar ma'naviyatini shakllantirishga doir dolzarb yo'nalishlarni qamrab oldi.

So'rovnomalar oilaning uziga xos ijtimoiy birlik sifatida uning har bir a'zosi va o'smirning xususiyatlarini nazarda tutgan holda tuzildi. Bu, o'z navbatida, shahar, qishloqlarda istiqomat qilayotgan